

ONA TILI SOHASINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Avezova Maxliyo Sultonnazir qizi

*Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ona tili darslarida bolalarning tafakkur faoliyatini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'zгалar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilishga, jamiyat a'zolari bilan erkin mulohazada bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishi to'g'risida so'z borgan.

Kalit so'zlar: o'qish texnikasi, fikrlay olish ko'rsatkichi, ona tili ta'lim standarti, DTS.

Annotation: In this scientific article, it is important to expand children's thinking activities in mother tongue classes, to be able to think freely, to understand the opinions of others, to express their thoughts fluently orally and in writing, to be able to freely communicate with members of society. There was talk about developing skills and abilities.

Key words: reading technique, index of thinking ability, standard of mother tongue education, DTS.

Аннотация: В данной научной статье важно расширить мыслительную деятельность детей на занятиях по родному языку, уметь свободно мыслить, понимать мнение других, свободно излагать свои мысли устно и письменно, уметь свободно общаться с членами общества. Шёл разговор о развитии навыков и умений.

Ключевые слова: техника чтения, индекс мыслительных способностей, стандарт родного языка, ДТС.

Ona tili ta'limda o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyishtiruvchi ta'lim larayoni sifatida qaraladi. Ona tili ta'lim standarti ko'rsatkichlari bolaning fikrlay olishga, ifodalangan fikrni anglashga va o'z fikr anglashga va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon qila olishga o'rgatish nuqtai nazardan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'lim sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar quyidagi uch parametri standart o'lchovi orqali aks ettiriladi.

1. O'qish texnikasi
2. O'zгалar fikrini va matn mazmunini anglash.
3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ona tili va o'qish bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi shart.

a) O'qish texnikasi bo'yicha:

b) Miqdoriy ko'rsatkich, bir daqiqa 80-90 so'zni o'qiy olish.

Talablar:

-harflarni to'g'ri talaffuz etish;

-so'zlarni to'g'ri yozish;

-gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va obrazli o'qish;

-gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish;

-sanash va ajratish ohanglaridan to'g'ri foydalanish;

-so'z urg'ularga rioya qilish

-ohangga rioya qilish;

-ilmiy atama va ramzlarni to'g'ri talaffuz etish.

v) Matn mazmunini va o'zgarlar fikrini anglash ,malakasi bo'yicha;

Miqdoriy ko'rsatkich,10 daqiqadan 4-5 saxifali matnni o'qib,qayta so'zlab bera olish.

Talablar.

-og'zaki nunqning to'g'ri,ravon,aniq tushunarli va ta'sirchan bo'lish.

-monologik nutqning ravon bo'lishi.

diologik nutqda ta'sirchan, izchil, mantiqiy jixatning aniq bo'lishi;

v) Diktant yozma malakasi;

Miqdoriy ko'rsatkich 75-80 so'zdan iborat diktant yoza olish.

Talablar:

-imlo xatolarga yo'l qo'ymaslik;

-ijodiy matnning mantiqiy jixatdan izchilligi:

-berilgan izohlarning aniqligi:

-lug'atlarning to'g'ri va aniq berilishi

g) Fikrni yosma bayon etish malakasi bo'yica:

Miqdoriy ko'rsatkich 5-6 gapdan iborat bo'lgan matnni (fikr ehtyoji bilan bo'lgan mavzu asosida) yaratish:

Talablar:

-matndagi gaplarning mazmunini o'zaro bo'g'liqligi va aloqadorligi ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashish:

-harf va tinish belgilarini to'g'ri yoxish:

Husnixatda qatorlarni to'g'ri joylashtirish;

-tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanishi;

-matnda so'zlarni takrorlashdan saqlanish va sinonimlarni qo'llay olish;

-matnda xat boshlarining yaxlitligi va fikr izchilligini ta'minlash;

-undosh so'zlardan foydalana olish;

Boshlang'ish ta'lim yakunida o'quvchlar kamida 20 ta kichik xajmdagi sherni yoddan aytib bera olishlari shart. Boshlang'ich ta'lim davlat standarti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da hamda Vazirlar Maxkamasi Uzliksiz ta'lim tizimida DTS larini ishlab chiqarish va joriy etish to'g'risida"gi 1998 yil 5 yanvar qaroriga va "DTS talabi to'g'risida"gi Nizomga asoslangan holda belgilangan:

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS ni umumiy o'rta ta'limning tarkibiy tuzilishi, mazmuni, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'quv yuklamasi hajmiga qo'yiladigan me'yor va talablar majmui bo'lib, u davlatnin me'yoriy xujjati sifatida e'tibor etilgan.

"Ta'lim to'g'risidagi"gi qonunning "DTS to'g'risidagi 7-moddasida belgilab berilgandek "DTS lari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yilgan talablarni belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir".

Boshlang'ich ta'lim davlat qonunini hayotga tatbiq etishda muxim bosqich xisoblanadi va unda ona tili, o'qish asosiy o'rin egallaydi. Ona tili dasturi quyidagi bilimlarni o'z ichiga oladi..

1. Savod o'rgatish, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish.
2. Sinfda, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish.
3. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.
4. Fonetika, grammatika, to'g'ri yozuv va nutq o'stirish.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'rgatishdan asosiy maqsad bolalarning yosh xususiyati va yozma nutqini, tafakkurini amalga oshirish, ularni shahs sifatida shakllantira borishni amalga oshirish, ularda bilim olishga qiziqishni oshirish, faollik, mustaqillik mexnatsevarlik, qiyinciliklarni eng olish qobiliyatlarini o'stirish hisoblanadi. Bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli o'stirish kelgusida fanlarni puxta o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ish sinflar "Fonetika" grammatika, to'g'ri yozuv va nutq o'stirish" dasturi boshqichi izchillik tamoyillari asosida tuzilgan bo'lib, foneika, grammatika imlodan beriladigan boshlang'ich ta'limotlar yuqori sinflarda o'qitiladigan ona tili va adabiyot, materillari bilan uzviy bo'glanadi. Ushbu dastur "Tovushlar va harflar", "So'z" "Gap", "Boglanishli nutq" va "Xusnixat bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Umum o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi 1999 yil.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Qadrlar tayyorlash milliy dasturi" 1997 yil.
3. 2-sinf Ona tili darsliklari. Q. Qosimova. Fuzailov. A. Ne'matova
4. 1-sinf ona tili darsligi. T. G'affarova, Shodmanov, H. G'Ulomova